

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**BOSHLANG‘ICH TA‘LIMNING DOLZARB  
MASALALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR**

**mavzusidagi  
Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari**



**Navoiy shahri,  
07.06.2023**

ongi, dunyoqarashlarini o‘stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir.

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o‘ziga xosligi shundaki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O‘qitish jarayoni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar faoliyatini o‘z ichiga oladi. O‘qituvchining faoliyati o‘quv materialini bayon qilish, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e‘tiqodini shakllantirish, o‘quvchilarning mustaqil mashg‘ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko‘nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O‘z ishiga ixlos bilan qaragan o‘qituvchida chinakkam ehtiros bo‘ladi.

Ma‘lumki, har bir dars mavzusini o‘rganishda o‘ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to‘g‘ri keladi. O‘qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma- ketligini mo‘ljallash kerak bo‘ladi. Bunda o‘qituvchi predmetning o‘ziga xos tomonlarini, o‘quv jarayonini va sharoitini, o‘quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni tanlashi lozim.

Xulosa qilib aytish mumkinki, pedagoglar pedagogik texnologiyalarni chuqur bilishi, tahlil qila olishi va yangilik yaratish darajasida ilmi va mahoratli bo‘lishi lozim. Buning uchun darsni tashkil etish jarayonida barcha bilim oluvchilarga qiziqarli, tushunarli va oson bo‘lgan usullarni tanlashi va qo‘llay olishi, ko‘rgazmali qurollardan foydalanishi, pedagogik texnologiyalardan to‘g‘ri va samarali foydalanishi dars jarayonlarini sifatli bo‘lishi uchun zaruriy vositadir. Pedagog yaratuvchanlik asosida darsni qiziqarli tashkil qila olsa, o‘quvchi yoshlar ham fanga bo‘lgan qiziqishi va samarali bilim olishi oshib boraveradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Alixonov S. Matematika o‘qitish metodikasi. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent-2011.
2. Matematika fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar moduli bo‘yicha o‘quvslubiy majmua. Termiz – 2020.
3. Umumiy o‘rta ta‘limning matematika fanidan davlat ta‘lim standarti va o‘quv dasturi .Toshkent-2017.

### **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI BILAN TANISHTIRISH JARAYONIDA O‘QIB VA TINGLAB TUSHUNISH MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**Qayimov Laziz Mirzo o‘g‘li -**

Buxoro davlat universiteti Pedagogik ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida xalq og‘zaki ijodi bilan tanishtirish jarayonida o‘qib va tinglab tushunish malakalarini takomillashtirishga doir fikr-mulohazalar bayon etilgan.*

Mustaqillikka erishganimizdan keyingi yillarda mamlakatimizda ona tilini o‘qitishda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga katta e‘tibor qaratildi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish, ularning o‘qish hamda tinglab tushunish malakalarini shakllantirishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, taniqli olim R.G‘.Safarovning [1] doktorlik dissertatsiyasida nutqiy ko‘nikma, o‘qish ko‘nikmalari va malakalarni baholash mezonlari va texnologiyalari yuzasidan o‘rinli tavsiyalar berilgan. Shular qatorida, A. Ismoilov va boshqalar tomonidan nashr etilgan qo‘llanmada o‘qib tushunish malakasini baholash mazmuni, baholashda foydalaniladigan topshiriqlar metodikasi haqida ma‘lumotlar keltirilgan hamda turli matnlar asosida topshiriq namunalarini berilgan.

Ona tili fani bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘lim milliy o‘quv dasturlarida ona tili o‘qitishning asosiy maqsadi quyidagicha belgilangan: “O‘quvchilarda o‘qish va mehnat jarayonida o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, jamoat joylarida turli nutqiy vaziyatlarda mustaqil ravishda fikrini ifoda etadigan, og‘zaki va yozma savodxonlik malakalariga egabo‘lgan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘z g‘alalar fikrini anglaydigan - muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish” [2: 204].

O‘zbekiston Respublikasi yosh avlodning bilish faoliyatini shakllantirish va uzluksiz rivojlantirib borishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, vositalari, metodlarini ilmiy pedagog asoslarga tayangan holda belgilab berishni taqozo qilmoqda. Ushbu muommoning yechilishi o‘quvchilarni ijodiy fikrlashi, ularda bilimni egallash faolligi, mustaqil bilish faoliyatini shakllantirish masalalariga bog‘liq. Bunda kichik

yoshdagi maktab o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Og'zaki adabiyot yozma adabiyot paydo bo'lmasdan ilgari, uzoq o'tmishdayoq mavjud edi. Bu adabiyot xalq badiiy kamoloti va ma'naviy boyligining bitmas-tuganmas xazinasidir.

Xalq og'zaki ijodi uning turmush tajribalari asosida yuzaga kelgan bo'lib, mehnat jarayoni bilan chambarchas bog'langan. Xalq donoligi shu mehnat jarayonining turli va o'ziga xos shart-sharoitlariga muvofiq ravishda bolalar uchun ham ajoyib ertaklar, qo'shiqlar, topishmoqlar, maqollar yaratgan. Ularni bolalar juda sevib tinglaydilar va o'qiydilar. Xalq og'zaki ijodi bilan bolalar maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab tanisha boshlaydilar. Xalq og'zaki poetik ijodidagi obrazlarning yorqinligi, so'z ma'nolarining aniqligi, matnning ohangdorligi, musiqiylik kabi xususiyatlar bola ruhiga orom, huzur bag'ishlaydi, uni o'ziga mahliyo etadi. Kichik va o'rta yoshdagi bolalar qahramonlik dostonlarini shavq-zavq bilan o'qishadi, ertak, qo'shiq va topishmoqlarga g'oyat qiziqishadi. Shuning uchun xalq og'zaki poetik ijodi bolalar kitobxonligidan doimo o'rin olib keladi.

Haqiqatan ham, o'quvchilarini xalq og'zaki ijodiga ruhida tayyorlash aql - idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalash istiqloq talabidir. Demak, bugungi o'qituvchi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlaridan to'la xalos etish, ta'lim-tarbiya jarayonini jahon rivojlangan ta'lim darajasiga ko'tarishda faol ishtirok etishi bilan birga o'quvchilar qalbi va ongida xalq og'zaki ijodiga asosida tarbiyalash, boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qib va tinglab tushunish malakasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quvchilarni xalq og'zaki ijodi asosida tarbiyalash dastlab oilada, bog'chada keyinchalik, maktabda bilim olayotgan bolalarda shakllanadi. Ta'limning poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, o'quvchining dunyoqarashi shunchalik rivojlanadi.

Shuni aytish kerakki, boshlang'ich ta'limda o'qish va o'qitish muammolari, uni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish doimo dolzarb bo'lib kelgan. Shuning uchun ham Q.Abdullaeva, Abdukarimov, R.Safarova B.Adizov, R.Movlonova, R.Ergashev, M. Haydarov, T.Hasanov, O.Xasanboeva, B.Raximov, N.Valieva, N.Jumaeva kabilarning ilmiy asarlarida boshlang'ich ta'lim mazmuni, boshlang'ich sinf o'quvchilarni mehnat, axloqiy tarbiyalash, ongli intizom, do'stlik kabilar nazariy jihatdan yoritilgan. X.Bobomirzayev, U.Rajabovlarning ishlarida xalq maqollari yordamida o'quvchilarini xalq og'zaki ijodini o'rganish asosida tarbiyalash muammolari pedagogik jihatdan ishlab chiqilgan. Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda badiiy asarlar o'qitish asosida o'qib va tinglab tushunish malakalarini takomillashtirish metodikasini yaratish dolzarb muammo bo'lmoqda.

Boshlang'ich ta'lim yurtimiz kelajagini buyuk davlat darajasiga ko'taradigan ijodkor shaxsni yaratishda mustahkam poydevor rolini o'ynaydi. Bunda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalashdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi. Ayniqsa, o'qish darslarida xalq og'zaki ijodining eng ommabop va qiziqarli bo'lgan janrlaridan bo'lgan ertaklarni o'quvchilar juda qiziqib o'qiydilar va o'rganadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari xalq og'zaki ijodi namunalaridan dastlab ertak bilan tanishadilar. Boshlang'ich sinf darsliklarining barchasiga ko'plab ertaklar kiritilgan. Boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'rganishda quyidagicha maqsadlar ko'zda tutiladi:

1. Bolalarni barkamol inson ruhida tarbiyalash, ularda Vatan, jamiyatga muhabbat hissini tarbiyalash.

2. O'quvchilarga xalq ertaklari materiallari bo'yicha davlat ta'lim standartlari asosida bilim berish.

3. O'quvchilarda ertak materiallarini o'qishga havas uyg'otish.

4. O'quvchilarning o'qib va tinglab tushunish malakasini rivojlantirish.

5. Texnika vositalaridan foydalanishga o'rgatish.

Ertaklarni o'qish darslarida asosiy tarbiyaviy vazifa ularni barkamol inson ruhida shakllantirishga qaratiladi. Masalan, Ona tili va o'qish savodxonligi (1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun) darsligida "Chumolining jasorati" ertagi [5: 7] berilgan. Unda vatanparvarlik namunasi juda sodda va ishonarli tarzda talqin etilgan. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda ertaklarni o'qish orqali o'quvchilarning umumiy kamolotiga, ularda vatanparvarlik, do'stlik, o'rtoqlik qadriyatlarini shakllantirish, jamoa ichida o'zini boshqarish, mehnatsevarlik, halollik, rostgo'ylik, o'qishga ongli munosabatda bo'lish kabi ijobiy xususiyatlarni tarbiyalashga alohida e'tibor berish lozim. Mana shu maqsadni amalga oshirish uchun boshlang'ich sinflarda sinfda o'qish darslarida o'qib o'rganiladigan materiallar orasidan o'quvchilarni insoniy fazilatlar egasi qilib tarbiyalashni o'zining asosiy g'oyasi sifatida aks ettirgan bir qator ertaklarni tahlilga tortamiz. Ma'lumki, inson barkamolligida ustuvor o'rin egallagan jihatlardan biri ilmi bo'lishga intilish, Bilimga chanqoqlik hisoblanadi.

Shuning uchun o'quvchilarda 1-sinfdan boshlab bu mavzudagi ertaklar o'qitiladi. O'zbek xalq ertaklarida ham ana shunday fazilatlar ulug'lanadi. Yolg'onchilik, baxillik va dangasalik kabi illatlar qoralanadi. Ana shunday mazmundagi ertaklar boshlang'ich sinflarda o'qib-o'rganilganda, o'quvchilarda

insoniy fazolatlarni kamol toptirilishiga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki kichik yoshdagi o'quvchilar juda ta'sirchan bo'ladi, ular ertaklarda berilgan ezguliklardan quvonadilar, aksincha yovuzliklardan nafratlanadilar. Ana shu jarayonda o'quvchilarda komillik xislatlarini shakllantirish ayniqsa alohida o'rin tutadi. "Rostgo'y bola" ertagini o'qish darsida rostgo'ylikning bebaho xislat ekanligiga alohida urg'u beriladi. Ertakda bir buyuk podshohning farzandsizlikdan azob chekkanligi va oxir-oqibat farzand olib saqlamoqchigi hikoya qilinadi. Podsho yurtning barcha bolalariga gul urug'i tarqatadi va kimning guli eng chiroyli bo'lsa o'shani farzand qilmoqchiligini aytadi. Oradan birmuncha vaqt o'tgach o'stirilgan gullarni ko'rish uchun shahar aylanadi. U ko'p bolalar va ular chiroyli qilib o'stirgan gullar yonidan beparvo o'taveradi. Ammo ko'cha boshida gulsiz tuvak tutgan bolani ko'rib uni farzand qilib oladi. Chunki podsho tarqatgan gul urug'i qaynatilgan edi. Ertak mazmunidan ham ko'rinadiki, rostgo'ylik insonda eng qadrlanadigan fazilatlardan biri ekan. Rostgo'y insongina buyuk martabalarga erishadi. Buni o'z rostgo'yligi bilan podshoga farzand bo'lgan bola misolida ham ko'rish mumkin. O'qituvchi ushbu ertakni o'qish darsida o'quvchilarga quyidagi savollarni beradi:

1. Rostgo'ylik nima?
2. Siz yolg'on gapirib turasizmi? Nima uchun?
3. Sizni aldashganmi? Bu holatda nimalarni his qilgansiz?

O'quvchilar ushbu so'roqlarga javob berish davomida o'zlarining rostgo'ylik haqidagi tushunchalarini qay darajada kengligini bilib oladilar. Ularda o'z fikrlarini mustaqil bayon etish ko'nikmalari shakllantiriladi. Shuningdek, o'qituvchi ertak mazmuniga mos maqollarni aytishni o'quvchilardan so'raydi. Ular "Boshingga qilich kelsa ham rost so'zla", "Shirin yolg'ondan achchiq haqiqat afzal", "To'g'ri gapning to'qmog'i bor" kabi maqollarni aytadilar va o'qituvchi yordami bilan bu maqollarning mazmunini bilib oladilar. Ertakni to'qish jarayonida o'qituvchi rostgo'ylik insonni buyuk martabalarga olib chiqishini tushuntiradi. Agar rostgo'y bola ham podshoga farzand bo'lishni xohlab boshqa urug'dan chiroyli gul undirganda edi, u ham boshqalarga o'xshab podshoning nazariga tushmagan va unga farzand bo'lmagan bo'lardi. Undagi rostgo'ylik podshoh tomonidan ulkan qadrlanib, uni o'ziga farzandlikka qabul qilishiga sababchi bo'ldi. Mana shu tarbiyaviy jihatlarga diqqat qilish o'quvchilarni rostgo'y bo'lishga, yolg'onchilikdan qochishga undaydi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklarida berilgan har qanday ertak zamirida o'quvchilarni ma'naviy yetuk inson ruhida tarbiyalash g'oyasi yotadi. O'qituvchi esa ana shu g'oyani ilg'agan tarzda o'z darslarini uyushtirsa va o'tkazsa o'z pedagogik vazifasini ado etgan bo'ladi. Zero, ma'naviyati yuksak, har tomonlama rivojlangan komil shaxsgina yurtimiz kelajagini buyuk qila oladi.

Maqol xalqning ko'p asr mobaynida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda to'plagan tajribalari, kuzatishlari asosida yuzaga kelgan ixcham chuqur mazmunga ega bo'lgan og'zaki ijod janrlaridan biridir. Maqol o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janr hisoblanadi. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi. Shuning uchun ham turli xalqlar og'zaki ijodida mazmun va shakl jihatidan bir-biriga yaqin hamda hamohang maqollar o'xshashliklar, umumiyliklar mavjud. Maqol qator xususiyatlari bilan xalq og'zaki ijodining boshqa janrlaridan keskin farqlanib turadi. Maqollarda ibratli fikr aytiladi.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar bilan shartlangan holda maqollar mazmunida turli darajada o'zgarishlar-torayish yoki kengayishlar yuz beradi. Mana shu faktning o'ziyoq maqolning jamiyat hayoti xalq turmushi bilan bevosita bog'lanishda ekanligini ko'rsatadi. Demak, maqollar xalq hayotini, uning o'tmishdagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy turmush darajasini o'rganishda nodir manbalik vazifasini o'taydi. Shuning uchun ham genial rus yozuvchisi L.N.Tolstoy "Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalq siymosini ko'raman" deb yozganida to'la haqli edi.

Boshlang'ich sinflarda maqollarni o'rganish orqali o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish bilan bir qatorda ularga o'qib va tinglab tushunish malakasini shakllantirish orqali o'quvchilar ongiga turli insoniy fazilatlarni singdiriladi. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi: 1) maqollar tajribada sinalgan fikrni tasdiqlaydi. Masalan: "Hunarli kishi xor bo'lmas", "Hunar bo'lsa qo'lingda, non topilar yo'lingda", «Yolg'iz otning changi chiqmas, Changi chiqsa ham dong'i chiqmas» maqollarida hunari orqasidan kishining yaxshi turmush kechirishi hamda kishilar orasidagi ahillikning ahamiyati ifodalangan; 2) tabiatda sodir bo'lgan voqea va hodisalarni jamiyat hayotiga (ko'chma ma'noda) boshlaydi. Inson uchun uning zarurligi ochiladi. Masalan: Bog'ni eksang bog' bo'ladi, Botmon eksang yog' bo'ladi. Boqimsiz bog' tog' bo'ladi. Yurak-bag'ring dog' bo'ladi; 3) maqol mazmunida narsalarning o'ziga xos xususiyati, mohiyati ochiladi va bu inson hayotiga ham bog'liq holda, ma'no jihatidan tarbiya mazmunini beradi. Masalan: «Do'stsiz boshim-tuzsiz oshim», «Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni»; 4) maqollardagi muhokama va tafsilot inson, jamiyat va ayrim predmetlarning mohiyatini eslatish bilan birga, o'quvchilar fikrini uyg'unlashtiradi, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Maqollarni anglatgan ma'nolarini ochishda yil fasllari, har-xil

mavsumlar va hunarlarning nomlarini ham hisobga olish foydalidir. Ular o'quvchilarning lug'at boyliklarini oshiradi, so'zlarni ko'plab o'zlashtirishlariga olib keladi. O'qituvchi maqol mazmunini so'zlashdan oldin, uni ifodali o'qib beradi. Shundan so'ng o'qish texnikasini yaxshi egallagan o'quvchilarning ikki-uchtasi maqolni o'qitib, ularni tinglab tushunish malakasi rivojlantiriladi. Ayrim o'quvchilardan maqol mazmunini qanday tushunilganligi savollar orqali so'raladi.

O'qituvchi maqol yozilgan kartonni doskaga iladi va o'qish texnikasini yaxshi egallamagan 2-3 o'quvchiga ifodali o'qitadi. O'quvchilarning ifodali o'qishdagi ayrim nuqsonlar izohlanadi, so'z maqollar mazmunan tahlil etiladi. Masalan: o'qituvchi «Yaxshidan bog' qoladi, Yomondan dog'» maqolini o'qishda quyidagilarga amal qiladi: 1. Birinchi misradagi «yaxshidan» so'zini ikkinchi misradagi «yomondan» so'zidan ohang jihatidan farqli ravishda o'qiladi. 2. O'qituvchi maqolni o'qish jarayonida, birinchi misradan so'ng qisqa pauza qiladi. 3. Ifodali o'qish jarayonida yaxshi, yomon, bog', dog' so'zlarini doskaga yozib boradi. Shu talablarga asosan, o'rganilgan maqol o'quvchilarda ifodali o'qish uchun zamin tayyorlaydi.

Shuningdek, yaxshi insonlar, ezgu fazilatlar egasi doimo xalq orasida ehtirom bilan tilga olinishi, u keyingi avlodlarga ham o'z yaxshi fazilatlarini bilan o'rnak bo'lishi tushuntiriladi. Chunki bog' hamisha yashnab turadigan, o'z ne'matlari bilan barchani xushnud qiladigan maskandir. Yomonlik ham unutilmaydi, binobarin u o'zidan og'riqli iz qoldiradi. Bu og'riq inson qalbida dog' misoli bo'ladi. Shuning uchun har bir inson faqat yaxshilik qilishga, ezgu ishlarni amalga oshirishga harakat qilishi lozimligi haqida o'quvchilar bilan suhbat olib boriladi. Yomon ishlardan chekinish zarurligi uqtiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga: «Sizni qanday eshlashlarini istaysiz? Buning uchun nimalar qilishingiz lozim?» kabi savollar bilan murojaat qilinadi.

O'quvchilar fikri diqqat bilan tinglanib, yaxshi fazilatlar misollar bilan ular ongiga singdirib boriladi. Shu o'rinda o'quvchilar orasidan ikki o'quvchi doskaga chiqariladi va ulardan biriga yaxshi fazilatlarini, ikkinchisiga yomon fazilatlarini doskaga yozish topshiriladi. Bunda quyidagi ustun yozilishi mumkin: Yaxshi fazilatlar - yomon xususiyatlar, rostgo'ylik - yolg'onchilik, mehnatsevarlik - dangasalik, kamtarlik - manmanlik, xushmuomalalik - qo'pollik, qo'rslik... Keyin o'qituvchi har bir yozilgan so'zga o'quvchilarning o'zlari biladigan, yod olgan maqollarini aytishni va shu orqali ularning anglash qobiliyatlarini sinab ko'radi. Masalan; Rostgo'ylik- «Boshingga qilich kelsa ham, rost so'zla» yoki «Kamtarga kamol-manmanga zavol» kabi maqollar aytildi va o'quvchilarning tinglab tushunish malakalari tekshirib ko'riladi. Ko'rinadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida xalq og'zaki ijodi bilan tanishtirish jarayonida o'qib va tinglab tushunish malakalarini takomillashtirish yo'llari nihoyatda ko'p.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Safarova R. G'. Milliy tiklanish sharoitida O'zbekiston maktablarida Ona tili ta'limi nazariyasi va amaliyoti. ped. fan. dok. ... dis. -Toshkent, 1998. - 236 b.

2. Ona tili fani bo'yicha O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy o'quv dasturlari. - Toshkent, 2021. -261 b.

3. Ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshq.]. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. - 104 b.

4. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-qism [Matn]: 1-sinf uchun darslik / I. Azimova [va boshq.]. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. - 104 b.

5. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. - Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. - 120 b.

### **KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI ART-TERAPIYA ORQALI RIVOJLANTIRISH**

#### **Jumayev Umedjon To'raqulovich -**

Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi.

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolaning Art-terapiya yordamida ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari va ijodiy faol shaxsni shakllantirish, hayot muammolarini samarali hal qilish qobiliyati katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun shaxsning yanada rivojlanishi, uning muvaffaqiyatli ijodiy faoliyati uchun qo'l keladigan ilmiy va nazariy yangiliklar ilgari surilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Maktabgacha ta'lim, Art-terapiya, ijodkorlik, ta'lim, shaxs, rivojlanish, vosita.*

So'nggi o'n yilliklarda ijodkorlik tushunchasi turli gumanitar fanlarni o'rganish maydoniga mustahkam kira boshladi. Ijodkorlikni rivojlantirish zamonaviy ta'limning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Bu, birinchidan, shaxs rivojlanishidagi umumiy tendentsiya, zamonamizning

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA BADIY ASAR MATNI USTIDA ISHLASH USULLARI H.Bakiyeva - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti.....	59
ADABIYOT O‘QITISHDA TA‘LIM TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI Suyunov M - Navoiy davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida dotsenti, p.f.n.....	62
TA‘LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI V.Yusupova - Xorazm viloyati PYMO‘MM “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim metodikalari” kafedrasida o‘qituvchisi. ....	65
BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI BILAN TANISHTIRISH JARAYONIDA O‘QIB VA TINGLAB TUSHUNISH MALAKALARINI TAKOMILLASHTIRISH Qayimov Laziz Mirzo o‘g‘li - Buxoro davlat universiteti Pedagogik ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi.....	66
KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI ART-TERAPIYA ORQALI RIVOJLANTIRISH Jumayev Umedjon To‘raqulovich - Buxoro davlat universiteti Maktabgacha ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi.....	69
КАЛОМ ИЛМИ ТАРИХИ ВА УНИНГ ЖАМИЯТ ИЖТИМОЙ ТАФАККУР ТАРАҚҚИЁТИГА ТАЪСИРИ М.Х.Норқобилов - Навоий давлат педагогика институти Тарих кафедраси доценти в.б., ф.ф.ф.д. (PhD).....	71
O‘QUVCHILARNING NUTQINI O‘STIRISHDA TURLI TOPSHIRIQ VA MASHQLARNING AHAMIYATI Ozodova Madina Hamza qizi - Buxor davlat universiteti Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi tayanch doktoranti.....	73
РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КАЛЛИГРАФИЧЕСКИХ МИНУТОК НА УРОКАХ ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ Мусаева Б.М. - Навоийский государственный педагогический институт Кафедра русского языка и литературы.....	75
“SINFDA O‘QISH” MODULINI O‘QITISHDA LOYIHALASH METODIDAN FOYDALANISH Tog‘ayeva Umida Shavqi qizi- Buxoro davlat universiteti Tayanch doktoranti.....	78
BOSHLANG‘ISH SINFI O‘QUVCHILARIGA KO‘PAYTIRISH AMALINI O‘RGATISH METODIKASI Alimov Alisher Yarashevich-NavDPI Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida katta o‘qituvchisi Alliyarova Shaxnoza Makset qizi-NavDPI Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.....	79
ФОРМЫ ПРОВЕДЕНИЯ УРОКОВ МАТЕМАТИКИ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ Нажимова А.И. – ст. преп. кафедры начального образования НавГПИ ..... .....	80
BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARINING MATEMATIKADAN VAQT O‘LCHOV BIRLIKLARIGA OID KOMPONENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI Alimov Alisher Yarashevich-NavDPI, Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida katta o‘qituvchisi Begmuratova Banu Xamid qizi-NavDPI, Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi.....	83